




QISHLOQ, O'RMON VA BALIQ XO'JALIGI


Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra 2018 yilning yanvar-iyun oylarida qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulot(xizmat)larining umumiy hajmi 1267,3 mlrd.so'mni yoki 2017 yilning mos davriga nisbatan 100,2 foizni, shu jumladan dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlar – 1260,6 mlrd.so'mni (100,2 foiz), o'rmon xo'jaligida – 1,4 mlrd.so'mni (97,8 foiz), baliq xo'jaligida – 5,3 mlrd.so'mni (98,0 foiz) tashkil qildi.

Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulotlari (xizmatlar)ning hajmi



Xususan yuqori o'sish sur'atlari Oqoltin (100,6 foiz), Sayxunobod (100,5 foiz), Sardoba (100,4 foiz) tumanlarida kuzatildi. Mirzaobod (100,0 foiz), Guliston (100,0 foiz) Xovos (100,0 foiz) tumanlarida esa aksincha past sur'atlar kuzatildi.

Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulot (xizmatlar)lar hajmining hududlar kesimida taqsimlanishi




Viloyatning qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmida Sayxunobod tumanining ulushi 16,8 foizni tashkil etdi va hududlar boyicha etakchilik qilmoqda, Boyovut tumanining mos ravishda 16,5 foiz va Sirdaryo tumani 13,7 foiz ko'rsatkichlari bilan keyingi o'rinlarni egalladi. Eng kam ulush Mirzaobod (7,1 foiz), Sardoba (10,9 foiz) va Xovos (9,9 foiz) tumanlarida qayd etildi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari


2018 yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmining o'sishi 2017 yilning mos davriga nisbatan 100,2 foizni, shu jumladan, dehqonchilik mahsulotlari – 96,2 foizni, chorvachilik mahsulotlari – 107,1 foizni tashkil qildi.

Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining xo'jaliklar toifalari bo'yicha taqsimlanishi



Xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlillar, qishloq xo'jaligi mahsulotlar umumiy hajmining 71,1 foizi – dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 25,9 foizi – fermer xo'jaliklariga, 3,0 foizi – qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.

Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining xo'jaliklar toifalari bo'yicha taqsimlanishi hududlar kesimida



Qishloq xo'jaligi yalpi mahsulotining ulushi xo'jaliklar toifalari bo'yicha taqsimlanishi hududlar kesimida tahlil qilinganda, eng yuqori ko'rsatkichlar barcha hududlarda dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga to'g'ri kelishi kuzatildi.

Dehqonchilik

2018 yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqarilgan dehqonchilik mahsulotlarining hajmi 708,4 mlrd.so'mni yoki 2017 yilning mos davriga nisbatan 96,2 foizni tashkil etdi. Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining umumiy hajmida dehqonchilik mahsulotlarining ulushi 55,9 foizni tashkil qildi.



Hosilni yig'ib olish. 2017 yilning yanvar – iyun oylarida 23,8 ming tonna (104,7 foiz) kartoshka ishlab chiqarildi, 67,5 ming tonna (100,4 foiz) sabzavotlar, 12,0 ming tonna (70,6 foiz) oziqbop poliz, 7,5 ming tonna (133,0 foiz) meva va rezavorlar, 0,5 ming tonna (145,5 foiz) uzum yig'ib olindi. Bundan tashqari 347,6 ming tonnadan ortiq don ekinlari ishlab chiqarildi.


Chorvachilik



2018 yilning yanvar-iyun oylarida chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi 530,7 mlrd, so'mni yoki 2017 yilning mos davriga nisbatan 107,1 foizni tashkil qildi. Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining umumiy xajmida chorvachilik mahsulotlarining ulushi 41,9 foizni tashkil etdi.

2018 yilning yanvar-iyun oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan tirik vaznda 34,0 ming tonna go'sht (2017 yilning yanvar-iyuniga nisbatan 1,4 foizga ko'p), 166,7 ming tonna sut (17,7 foizga), 68,7 mln.dona tuxum (7,9 foizga), 0,3 ming tonna jun, (-13,1 foiz) ni tashkil qildi.

Asosiy turdagi chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishda ho'jalik toifalarining ulushi




Chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, tirik vaznda go'shtning umumiy hajmidan 98,4 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini qayd etish lozim, shuningdek sutning 95,5 foizi, tuxumning 79,7 foizi, junning 85,6 foizi, ham dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri keladi.

Yirik shoxli qoramollar va parrandalar bosh soni

2018 yilning 1 iyul holatiga yirik shoxli qoramollarning umumiy bosh soni 411,4 ming boshga, shu jumladan sigirlar – 153,9 ming boshga, qo'y va echkilar – 313,1 ming boshga, parrandalar – 1576,4 ming boshga etdi.

2017 yilning mos davri bilan solishtirilganda barcha toifadagi xo'jaliklarda yirik shoxli qoramollar bosh soni – 18,7 ming boshga (-4,4 foizga) kamaydi, shu jumladan sigirlar – 2,5 ming boshga (1,7 foizga), qo'y va echkilar – 3,2 ming boshga (1,0 foizga) oshgan bo'lsada, parrandalar – 350,9 ming boshga (-18,2 foizga) kamaydi.

Xo'jalik toifalarining chorva mollari va parrandalar bosh sonidagi ulushi



- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar

2018 yining 1 iyul holatiga yirik shoxli qoramollar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlarni ho'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, yirik shoxli qoramollarning 6,5 foizi fermer xo'jaliklari hissasiga, 92,0 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 1,5 foizi qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim, shunga mos ravishda qo'y va echkilarning umumiy sonidan 7,7 foizi fermer xo'jaliklariga, 91,0 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 1,3 foizi qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keladi, shuningdek parrandalar umumiy sonidan 2,2 foizi fermer xo'jaliklariga, 79,0 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 18,8 foizi qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keladi